

### Mashg'ulotning maqsadi

📌 O'quvchilar tog'larning qanday hosil bo'lishini, ularning tabiatdagi o'rnnini va qanday foydali qazilmalar mavjudligini o'rganadi. Ular tog'larning inson hayotiga ta'siri va tabiiy boyliklarni saqlashning ahamiyatini tushunadi.

### Mashg'ulot davomiyligi

⌚ 40 daqiqa

### Interfaol resurslar

Platformadagi interfaol resurs 3-sinf Tabiiy fan (science) darsligining 1-bo'limi 27-sahifasidagi nazariy ma'lumotlar asosida tayyorlangan.

### Muhim va asosiy nazariy qism

🏔️ **Tog'lar** – Yer yuzasining baland va tik joylari bo'lib, ular yer po'stining siljishi va vulqon otilishi natijasida hosil bo'ladi.

🌐 Yer yuzidagi **eng yirik tog' tizmalari**:

**Himolay** – Dunyodagi eng baland tog' tizmasi. Unda Everest cho'qqisi (8 848 m) joylashgan.

**Tyan-Shan va Pomir** – O'zbekiston va Osiyoda joylashgan yirik tog' tizmalari.

**And** – Janubiy Amerikadagi eng uzun tog' tizimi.

**Ural** – Yevropa va Osiyo qit'alarini ajratib turadi.

📍 **Tog'larning boyliklari** – Tog'larda ko'plab foydali qazilmalar va tabiiy resurslar mavjud:

🔨 **Metallar** – oltin, mis, temir va alyuminiy qazib olinadi.

☰	**Yoqilg'i-energetika resurslari** – neft, gaz va ko'mir zahiralari tog'larda uchraydi.

💎 **Qimmatbaho toshlar** – olmos, zumrad, yoqut kabi minerallar tog'larda hosil bo'ladi.

💦 **Ichimlik suvi manbalari** – ko'plab daryolar va buloqlar tog'lardan boshlanadi.

### STEM fanlar bilan integratsiyasi

🔬 **Tabiiy fanlar** – Tog'larning hosil bo'lishi va ularning tuzilishi.

📊 **Matematika** – Tog'larning balandligini o'lash va ularning yer maydonidagi foizini hisoblash.

🔧 **Texnologiya** – Tog'larda foydali qazilmalarni qazib olish va qayta ishlash texnologiyalari.

💻 **Informatika** – Sun'iy yo'doshlar orqali tog' tizimlarini xaritalash.

$$E=mc^2$$



## Qiziqarli fakt

 **Everest** cho'qqisi har yili taxminan **4 мм** balandlashadi! Buning sababi – yer po'stining harakatlanishi va geologik jarayonlar.